

“Tijorat banklarining transformatsiyasi orqali ularning faoliyat samaradorligini oshirish”

*O`zbekiston Respublikasi Bank-moliya akademiyasi magistranti
Yusupov Akmal Davlatyor o`g`lining magistrlik dissertatsiyaga*

Annotatsiya: Ushbu tezisda Tijorat banklari faoliyatini transformatsiya qilish masalalari ko'rib chiqiladi. Unda banklarda transformatsiyaning ahamiyati va nima uchun zamonaviy banklar faoliyatida raqamli transformatsiyaning o`rni muhurligi tushuntiriladi. Shuningdek, bunda banklar faoliyati samaradorligini oshirish bo'yicha bir qancha g'oyalar taklif qilinadi, jumladan, masofaviy bank xizmatlarini yaratish, yangi texnologiyalardan unumli foydalanish, tijorat banklari mijozlarga tez va sifatli xizmat ko`rsatishi uchun ish uslubini o'zgartirish va bu masalalarga yechim sifatida chet el banklari tajribalari misolida ko`rib chiqiladi..

Kalit so`zlar: transformatsiya, raqamlashtirish, raqamli bank, masofaviy xizmatlar, texnologiya, axborot, servislari, zamonaviy bank xizmatlari.

Bugungi kunda raqamli texnologiyalar inson hayotining barcha sohalariga jadal kirib bormoqda. Zamonaviy raqamli iqtisodiyotni rivojlantirish jarayonida eng so'nggi texnologiyalardan foydalangan holda bank xizmatlari ko'rsatishni o'rganish kabi masalalarga e'tibor qaratilmoqda. Ushbu sohada bank xizmatlarini samarali boshqarish uchun zamonaviy integratsiyalashgan axborot tizimlarini joriy etish, tizim ma'lumotlarining shaffofligi va himoyasini ta'minlash, raqamli iqtisodiyot texnologiyalaridan foydalanish va o'zaro axborot integratsiyasini samarali amalga oshirish metodologiyasini takomillashtirish asosiy tendentsiyalardan iborat. Raqamli iqtisodiyot va innovatsiyalarning keng miqyosda rivojlanishi tijorat banklaridan xizmat ko'rsatish axborot tizimlarini takomillashtirishni talab qiladi, deb hisoblanmoqda. Butun dunyoda raqamli transformatsiya jarayonlari davom etayotgan bir paytda, mamlakatimizda

zamonaviy voqelik va tendentsiyalarni hisobga olgan holda raqamli iqtisodiyotga o'tish jarayoni to'liq boshlanmagan. Masalan, an'anaviy bank faoliyatida hanuzgacha hujjatlarning qog'oz shaklda aylanishi eng katta kamchiliklaridan biri hisoblanadi.

Bank transformatsiyasi – bu bank tizimiga zamonaviy texnologiyalar va tizimda raqamlashtirishni qo'llash orqali mijozlar bilan samarali hamkorlik qilish hamda mijozlarga tez va sifatli masofaviy bank xizmatlarini ko'rsatishni tashkil etishni yo'lga qo'yishdir. Raqamli tarmoq raqamli bankning tayanchi bo'lib, call-markaz, internet-banking, mobil banking va filiallar qo'yilgan poydevorga qo'shimchalar hisoblanadi. XX asrning oxirgi dekadasi faoliyatini boshlagan Buyuk Britaniyaning First Direct banki filialsiz bank yaratishda birinchilardan bo'lgan. Mijozlarga xizmat ko'rsatish bank tomonidan telefon orqali amalga oshirilgan. Birinchi kun davomida bank 1000 ta qo'ng'iroqlarni qabul qilgan va 1995-yilga kelib First Directning portfelida 500 000 dan ortiq mijozlarga ega bo'ldi. Birinchi marta "raqamli bank" yoki neobank atamasi 2014- yilda AQShda nashr etilgan Kris Skinnerning "Digital bank" kitobida batafsil tavsiflangan va keyinchalik 2015-2020 yillar davomida Yevropada rivojlangan. Shuni alohida ta'kidlash kerakki, ko'pchilik neobanklar bank litsenziyalarini cheklovchi to'siqlar tufayli texnik jihatdan to'liq "banklar" hisoblanmaydi.

Mamlakatimiz iqtisodiyotining globallasuvi va ilmiy-texnika taraqqiyotini jadallashtirish sharoitida bank-moliya tizimini tubdan isloh qilish orqali xorijiy investorlarning respublikamiz bank-moliya sohasiga bo'lgan ishonchini yanada oshirish va ularning e'tiborini jalb qilishda zamonaviy texnologiyalarni keng qo'llash orqali tizim barqarorligini oshirish, ko'rsatilgan bank xizmatlar turlarini va xizmatlar bozori hajmini kengaytirish masalasi bugungi kunda dolzarbligicha qolmoqda. Iqtisodchilarning fikricha, moliyaviy sektorining global innovatsion transformatsiyasiga yo'naltirilgan, zamonaviy xizmatlar rivojlangan davrdamiz va bu an'anaviy moliya institutlari uchun katta raqobat muhitini yuzaga keltirmoqda. Zamonaviy moliyaviy texnologiyalarning

tijorat banklari faoliyatiga integratsiyalashuv darajasi ularning raqobatbardoshligi va moliyaviy barqarorligini belgilaydi.

Respublikamiz tijorat banklari uchun nodepozit operatsiyalarni samarali shakllantirish hamda ularni to'g'ri joylashtirish raqamli iqtisodiyotni shakllantirish sharoitida muhim ahamiyat kasb etadi. Bu borada:

Birinchidan, yurtimiz tijorat banklari davlat ulushini tugatib yirik investorlar tomonidan bankning transformatsiya jarayonini olib borishlari lozim.

Ikkinchidan, tijorat banklari resurs bazasini mustahkamlash borasida yevrobondlarni chiqarishni yo'lga qo'yish maqsadga muvofiqdir. Bu boradagi fikirni O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyevning 2020-yil 24-yanvarda Oliy Majlisning Senati va Qonunchilik palatasiga Murojatnomasida ham takidlaganlar.

Uchinchidan, tijorat banklari xalqaro obligatsiyalarni chiqarish orqali havfsiz va arzon hamda barqaror kapitalga ega bo'lishadi. Bu orqali kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni yanada rivojlantirishga keng yo'l ochib bergan bo'lamiz.

Tijorat banklari transformasiya jarayonida davlat tashkilotlari, korxonalar, biznes tuzilmalarida axborot texnologiyalarni oddiy joriy etish deb hisoblamasliklari kerak. Shuningdek korporativ veb-saytni, Telegram botni, mobil ilovani ishlab chiqish va ishga tushirish va ijtimoiy tarmoqlarga kirish, tashkilotlar o'zlarini raqamli deb hisoblashiga imkon berishiga ishonish noto'g'ri. Aslini olganda, transformasiyasi haqida gapirganda bu yangi texnologiyalarga investisiya kiritishni o'z ichiga olgan muayyan tashkilot/korxonaning barcha mavjud modelini, ya'ni to'g'ridan-to'g'ri tuzilishiga, rivojlanish strategiyasiga, mijozlar bilan ishlashga, mahsulotlarni ilgari surish va xizmat ko'rsatish usullari, va hatto korporativ madaniyat kabi o'zgarishlar to'plami ekanligini tushinish kerak.

Undan tashqari, Bank tizimiga zamonaviy servis yechimlari asosida axborot texnologiyalarini, moliyaviy texnologiyalarni keng joriy etish, axborot xavfsizligini lozim darajada ta'minlash, shuningdek, moliyaviy xizmatlar

ko'rsatishda inson omili ta'sirini kamaytirish bo'yicha tezkor chora-tadbirlar ko'rish talab etishini inobatga olgan holda bu masala O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 2-martdagi PF-5953-son Farmoni bilan tasdiqlangan¹ 2017 — 2021-yillarda O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo'nalishi bo'yicha Harakatlar strategiyasini "Ilm, ma'rifat va raqamli iqtisodiyotni rivojlantirish yili"da amalga oshirishga oid davlat dasturida belgilab o'tilgan. Mazkur vazifalar O'zbekiston Respublikasi bank tizimini isloh qilish bo'yicha "Yo'l xaritasi" ga muvofiq tasdiqlangan. Sohadagi o'zgarishlar bu bilan tugab qolmadi, Strategiya bank tizimini rivojlantirishning maqsadlari, vazifalari va ustuvor sohalarini, 2020 — 2025-yillarda bank tizimini transformatsiya va isloh qilish yo'nalishlarini, xorijiy mamlakatlarning moliya sektorini transformatsiya qilish tajribasi asosida va moliyaviy sohadagi jahon tendensiyalarini hisobga olgan holda ehtimoliy yechimlarni izlash yo'llarini belgilaydi, shuningdek, mazkur strategiya Jahon bankining mamlakat bank tizimi joriy holatini o'rganish natijalari bo'yicha asosiy xulosalari va tavsiyalarini inobatga olgan holda ishlab chiqilgan.² Yurtboshimizning ushbu farmonlari mamlakatimizda raqamli bank xizmatlarini rivojlantirish yo'lida muhim asos hamda tayanch vazifasini bajaradi.

Yaqin kelajakda banklar raqamli bank xizmatlarini yaratishda mobil ilovalar va smart usullardan foydalanishni keng yo'lga qo'yadilar. Mijozlar bugungi an'anaviy bank xizmatlari filiallarda navbat kutib amalga oshirishda noqulaylik his qila boshladilar, sababi barcha odamlar uchun vaqtning muhimligi hisobga olsak, bank xizmatlaridan foydalanishga sarflanadigan vaqt "xarajati" qimmatga tushmoqda. Raqamli bank strategiyasining muhim omillaridan biri bank xizmatlari turlarining ko'payishi hisoblanadi va mobil ilovalarda joylashtirishdan iborat. Bunda, bankning operatsion xarajatlari kamayadi, mijozlarga xizmat ko'rsatish sifati ijobiy tomonga o'zgaradi.

¹ O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni, 02.03.2020 yildagi PF-5953-son. Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi, 03.03.2020-y., 06/20/5953/0246-son;

² O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni, 12.05.2020 yildagi PF-5992-son. Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi, 13.05.2020-y., 06/20/5992/0581-son

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Azevedo, P. D. (2018). The nature of ethical leadership. *Business Ethics: An Indian Perspective*, 11(1), 1-18.
2. Federal Deposit Insurance Corporation (FDIC). ([n.d.]). Consumer Protection: Insider Trading. <https://www.fdic.gov/>
3. Financial Action Task Force. (2023). <https://www.fatf-gafi.org/en/home.html>
4. Le Nguyen, C. (2018), "Preventing the use of financial institutions for money laundering and the implications for financial privacy", *Journal of Money Laundering Control*, Vol. 21 No. 1, pp. 47-58.
<https://doi.org/10.1108/JMLC-01-2017-0004>
5. Kaur Gunet, 2019, Development of Business Intelligence Outlier and financial crime analytics system for predicting and managing fraud in financial payment services. University of Stirling.
https://www.cs.stir.ac.uk/courses/it/projects/PastProjects/exemplars/Guneet_Kaur.pdf
<https://www.imf.org/en/Topics/governance-and-anti-corruption>
6. O'zbekiston Respublikasi Markaziy Banki (2020). O'zbekiston Respublikasi Markaziy bankining korrupsiyaga qarshi kurashish Siyosati.
<https://cbu.uz/upload/medialibrary/460/1.-Korrupsiyaga-qarshi-kurashish-Siyosati.pdf>
7. World Bank. (2016). Governance and Anti-Corruption.
<https://www.worldbank.org/en/topic/governance/brief/combating-corruption>
8. Levi, M., Peuter, P. (2006). Money laundering. The University of Chicago.
9. Mauro, P. (1995). Corruption and Growth. *The Quarterly Journal of Economics*, Vol. 110, No. 3 (Aug., 1995), pp. 681-712, Morris, L. (2017). Data-driven detection of financial crime. John Wiley & Sons.
10. Ethics Resource Center. ([n.d.]). Ethical Dilemmas at Work.
<https://www.loc.gov/item/lcwaN0007197/>

11. Rose, A. (2012). Fighting corruption in developing countries: A practical guide.
12. Transparency International. (2023).
<https://www.transparency.org/en/cpi/2022>
13. World Bank. (2020). Conflict of interest in public procurement.